

## ADABIY YO'NALISHLAR INSONIYAT TAFAKKURINING BADIY MANZARASI

*Maxmarajabova Mohinur Komil qizi*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Tillar fakulteti ikkinchi bosqich talabasi*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи Dots.- Usarova L.I.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda adabiy yo'nalishlar haqida ma'lumot beramiz. Har bir yo'nalishga alohida to'xtalib o'tamiz. Ularni bir-biri bilan qiyoslaymiz. Yo'nalishlarning kelib chiqishi va mohiyatini yoritib berishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Romantizm, realizm, klassitsizm, sentimentalizm, syurrealizm, modernizm.

Biz bilamizki, adabiyotimizda bir qancha yo'nalishlar mavjud. Romantizm, realizm, klassitsizm, sentimentalizm, syurrealizm va modernizm kabi. Bu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos jozibaga ega. Har bir yo'nalishning adabiyotimizda o'z vazifasi bor. Biri hayotimizdagi realliklarni aks ettirsa, yana biri insonlarning orzusidagi go'zal va mukmmal hayotni tasvirlaydi. Biri voqeа-hodisalarни yuzaki emas falsafiy mohiyatini, ichki jarayonini tasvirlasa, boshqasi hamma narsalarni aniq va qat'iy qoida asosida tasvirlaydi. Yana bittasi insonning his tuyg'ularini asos qilib oladi. Har bir gulning o'z ifori bo'lganidek, har bir yozuvchining ham o'z yo'nalishi bor. Bu yo'nalishlarning har birida adabiyotning yorqin vakillari ijod qilgan. Bu yo'nalishlar kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Aytmoqchimanki, usul va uslub(metod) adabiyotning paydo bo'lishi bilan bir vaqtida yuzaga kelgan. Faqat adabiyotshunos Hotam Umurov aytganidek: "Jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlarga javob tarzida usul ham, uslub ham yangicha sifat kasb etib, bahor yanglig' qayta tug'ilib boraveradi"<sup>1</sup>.

Aristotel "Poetika" asarida: " Sofoklning aytishicha, u odamlarni qanday bo'lishi kerak bo'lsa shunday tasvirlagan, Yevripid esa qanday bo'lsa o'shanday tasvirlagan"<sup>2</sup>. Bu jumlalar ham usul va uslubni ancha davrlar oldin paydo bo'lganini isbotlaydi. Chunki Sofoklning ham Yevripidning ham yashagan davrlari milloddan avvalgi yillarga borib taqaladi. Yana Aristotelning bu jumlasidan Sofokl romantizm, Yevripid esa realizmda qalam tebratganini anglashimiz mumkin.

<sup>1</sup> Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

<sup>2</sup> Aristotel "Poetika" Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980

I.O. Sultonov: "Hozirgi zamон adabiyotshunosligida birinchi xil badiiy tafakkur- "romantik tafakkur tipi", ikkinchi xil tafakkur- "realistik tafakkur tipi" deb ataladi"- deb yozadi<sup>3</sup>.

**Realizm.** Bu metodning asosiy fazilati- "Hayotni butun yalang'ochligi va haqqoniyligi bilan qayta tiklash"(V.G.Belinskiy)dir. Bu yo'naliшh adabiyot paydo bo'lgandanoq yuzaga kelgan. Bu yo'naliшhda ijod qilgan yozuvchilar borliqni o'z holicha tasvirlaydilar. Reallikka asoslanadilar. Timofeev shunday deydi: "... biz realistlar deb ataydigan yozuvchilarning ijodida oldingi planga biz aks ettirish deb atagan ibtido, ya'ni voqelikdagi hodisalarни ular hayotda qanday bo'lsa o'shandayligicha ko'rsatishga intilish yetakchilik qiladi"<sup>4</sup>.

Realizmda oqimida ijod qilish u darajada oson bo'lмаган. Hammamiz yaxshi bilamizki, doim ham haqiqatni aytaversak odamlarga yoqavermaymiz. Yozuvchilarning ham realizmda ijod qilishi hammaga birdek manzur bo'lмаган. Ayniqla hukmron hokimiyat tuzumiga ijodkorlarning real yozishi unchalik ham xush kelmagan.

Realizm (lot. Realis- mavjud, haqiqiy) – adabiyotshunoslikda realizm termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda realizm terminining ma'nosи baddiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya'ni bu holda realizm umumestetik tushuncha bo'lib, hayotni haqiqatga( reallikka) muvofiq tasvirlashni, hayot haqiqatini bildiradi. Tor ma'noda realizm hayotni haqiqatda mavjud narsa-hodisalar mohiyatiga muvofiq tarzda, voqelikda mavjud faktlarini tipiklashtirish asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asoslanuvchi ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo'naliшhni bildiradi<sup>5</sup>. Bu yo'naliшh 20-asrda yuzaga kelgan. U tanqidiy realizm va sotsialistik realizm kabi turlarga bo'linadi. Realizmning turlarga bo'linishi va shunday nomlanishi M.Gorkiy nomi bilan bog'liq. Realizm yo'naliшhida ijod qilgan yozuvchilar Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Onore de Balzak va boshqalar.

**Romantizm.** Bu yo'naliшhning asosiy xislati " idealga moslab hayotni qayta yaratish"( V.G.Belinskiy)dir. Ya'ni orzudagi hayotni tasvirlashdir; uni go'zal va mukammal tarzda ifoda etishdir. Esxilning "Prometiy", Sofoklning "Shoh Edip" Navoiyning "Xamsa" asarlari aynan shu xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Abdulla Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" darsligida shunday yozadi: "Romantizm adabiyotning bosh ziddiyati- ezgulik va yovuzlik kurashi, unga ko'ra, yovuzlik ham unaga qarshi kurash ham birdek boqiydir. Ya'ni bu kurash yovuzlikni ildizi bilan yo'qotish-u olamni tubdan o'zgartirishga ojiz, qo'lidan keladigani- yovuzlikning

<sup>3</sup> Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" Toshkent. O'qituvchi nashriyot-matbaa uyi, 2005

<sup>4</sup> Тимофев Л.И. Основы теории литературы – М. 1966

<sup>5</sup> D.Quronov "Adabiyotshunoslik lug'ati" Toshkent. Akademnashr, 2013

olamda mutlaq hokim bo'lishiga yo'l bermaslik xolos. Yovuzlikka qarshi kurashayotgan betakror shaxs- romantizm adabiyotining bosh qahramoni”<sup>6</sup>.

Romantizm(frans. romantisme)- 18-asrning 1-yarmi – 19-asrda Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan hamda butun jahon bo'ylab keng yoyilgan oqim. Romantizm- ispancha “romans” so'zidan olingan bo'lib, bu so'z birinchi bor lirik va qahramonlik mazmunidagi qo'shiqni, keyinchalik esa ritsarlar haqidagi katta epik asarlarni anglatgan.

Angliyaga romantizmning kirib kelishi arafasida(18-asrning 2-yarmi) she'riyatning muhim unsuri hisoblangan barcha g'ayrioddiy, sirli, g'aroyib va fantastik narsalar( tuyg'ular, holatlar, sarguzashtlar) romantik so'zi orqali ifodalana boshlagan. 18-asr oxirida Germaniyada 19- asr boshlarida esa Fransiyada, shuningdek, Italiya, Polsha, Rossiya kabi mamlakatlarda romantizm klassitsizmdan farqlanuvchi adabiy oqimning nomi sifatida iste'molga kirgan.

Romantizm Yevropadagi hamma davlatlarni o'z ichiga olgan g'ayri ma'rifatparvarlik harakatlarining natijasidir. Buyuk fransuz inqilobining natijalaridan qoniqmaslik bu yo'nalishning paydo bo'lishida ijtimoiy asos vazifasini bajardi. Burjua jamiyatidagi turmush tarziga, jamiyat a'zolarining axloqsizlik, xudbinlik kabi illatlariga qarshi kurash, sano'at, siyosat va ilm-fan sohalaridagi o'zgarishlarning yangi ziddiyatlarni yuzaga keltirishi romantiklarda mutlaq ideallarga intilish hissini uyg'otdi. Ideal bilan voqelik o'rtasidagi katta farq romantizmda o'z aksini topdi va bu narsa romantizmga xos ikki yo'nalishning mohiyatini ochib berdi. Ayrim yozuvchilar ijodida hayotda aqlga sig'maydigan, sirli kuchlar hukmronlik qiladi, binobarin, taqdirga tam berish kerak, degan fikr yetakchilik qilsa, boshqa birlari ijodida esa zulm va zo'ravonlik dunyosiga qarshi kurash va undan norozilik kayfiyati ustunlik qiladi. Romantizm namoyondalari G.Geyne, J.N.Bayron, M.Yu.Lermontov, U.Vordsvort va boshqalar.

**Klassitsizm.** Realizmning o'ziga xos bir ko'rinishi- klassitsizm(lot. classicus-namuna, ibrat). Uning namoyondalari o'tmish antik adabiyoti namunalarini o'zlari uchun ibrat, namuna deb bilganlar. Ular adabiyotda hamma narsalar aniq va qat'iy qoida asosida tasvirlanishi kerak deb hisoblashgan va uch birlikni tashkil qilishgan: “harakat birligi”, “joy birligi” va “vaqt birligi”.

Klassitsizm vakillari “Adabiyot saroy va shahar uchun yaratilishi kerak”(N.Bualo) deb bilishganlar va janrlarni tabaqlashtirganlar. Ularning fikricha drama eng yuksak janr, komediya esa quyi janr. Roman, qissa, hikoya janrlariga ikkinchi darajali janrlar deb qarashgan. Ularning asarlarida ko'pincha inson hayoti va uning xarakterining bir tomoni batafsil va chuqur yoritib berilgani uchun, insonning

<sup>6</sup>Abdulla Ulug'ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017

xarakterining hamma tomoni to'liq aks ettirilmaydi. Uning namoyondalari P.Kornel, J.Rasin, Moler va boshqalar.

**Sentimentalizm** (fr.sentument- hissiyot, his qilish) oqimi XVIII asr o'rtalarida Angliyadagi feadalizm qoldiqlariga qarshi kurashni, oddiy insonlarning mehribonligini, qalbini asosiy tasvir qilib olgan. Sababi klassitsizm yo'nalishi insonlarning ichki olami tasviriga unchalik e'tibor qaratmagan, oily tabaqa hayotini bo'rttirib ko'rsatgan va adabiyotni "uch birlik" qolipiga bo'lgan. Sentimentalizmda ijod qiluvchilar klassitsizmning qoidalarini va uning qolipini buzdilar. Ular aql-idrokdan his-tuyg'uni ustun qo'yishdi. Sentimentalistlar o'z asarlari orqali o'rta va quyi tabaqa vakillarining ma'naviyati boyligini, pokligini, ularda odamiylik tuyg'usi yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatib berdi va shu bilan bir qatorda oliy tabaqa vakillari hayotining tubanligini, jirkanchligini fosh etdilar. Shu kabi xususiyatlar Kramzinning "Bechora Liza", Russoning "Yangi Eloiza", Richardsonning "Pamela" asarlarida yaqqol aks etgan.

Sentimentalizm yo'nalishi oddiy qahramonlarning hayotini har qanday insonning rahmini keltiradigan darajada tasvirlaydi. Kamsitilgan, haqorat qilingan, xo'rangan obrazlar bilan tanishgan inson qalbida ularga nisbatan ich-ichidan achinish hissi o'tadi." Axir ular ham inson-ku, ularning ham yaxshi yashashga, baxtli bo'lishga haqlari bor-ku! Nahot insonning qadr-qimmati shu bo'lsa? Bu ketishda insoniyat qachon birdamlikka, komillikka yetishadi?" degan achchiq savollar va iztiroblar o'qigan insonning qalbini tirmaydi. F.Dostoyevskiyning "Xo'ranganlar va haqoratlanganlar", A.Chexovning "Uyqu istagi" asarlari shu yo'nalishda yozilgan nodir asarlardir.

**Surrealizm** (fr. surrealisme- yuksak realism yoki realizmdan ham yuksak) Fransiyada XX asr boshlarida vujudga kelgan. Hayot voqealari hodisalarining mohiyatini, ichki dunyoni murakkab ramz va shakllarda, kutilmagan obrazlarda tasvirlashgan<sup>7</sup>. Syurrealizmni- sara realizm (Ozod Sharafiddinov) deb ham yuritadilar va unda ramziylikning asosiy yutuqlari, romantizmning kuchli bo'yoqlari yig'ilganligi sabab, fikr va tuyg'ularning tagdor, ramzli, zanjirli va murakkab ko'rinishlari aks etadi. Uning realizmdan farqi realizm oqimi mantiq ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarni sabab-natija asosida o'zaro bog'liqligini ko'rsatsa, syurrealizm esa voqelikda mantiq emas, "obyektiv tasodif" ustuvor bo'ishini namoyon etadi. Chunki, ular hayotimizda mantiq qoliplariga sig'maydigan, kishilarning xohish, irodasiga bog'liq bo'limgan, odamlarning hayot ko'nikmalari qamrab ololmaydigan hodisalar ko'p deb izohlashadi. Bu yo'nalishda ijod qilganlar Pol Varlen, Emil Verxare, Oskar Uayld, Marina Svetayeva, Aleksandr Blok va boshqalar.

<sup>7</sup> Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

**Modernizm** (fr. moderni- zamonaviy) dastavval, XIX asrning oxirida Fransiyada paydo bo’lgan. Hayotni yuzaki, aynan tasvirlashdan, uni etika va estetika( axloq va go’zallik) chegarasidan chiqib aks ettirishdan ko’ra voqeа-hodisalarning falsafiy mohiyatini, ichki jarayonini tasvirlashni afzal bildi<sup>8</sup>. Bu yo’nalish insonni salbiy yoki ijobjiy qilib tasvirlamaydi, balki, uning barcha xususiyatlari, fazilatlari bilan tasvirlaydi. Yaxshi fazilatlaridan tortib, yomon fazilatlarigacha birdek aks ettiradi. Buyukligi, tubanligi, iztirobi, sevgisi, xavotiri, sadoqati, nafrati, mehr-oqibati, xasisligi va boshqalar. Bu yo’nalishda yozilgan asarlarda inson ichidagi iztirob qiyofasi oolib beriladi. Ularda insonning tubanligi oshkora ko’rsatiladi. Tushkunlikka tushgan insonlarning o’y- xayollari, xatti-harakatlari aniq tasvirlanadi. Bu yo’nalishning namoyondalari J.Satr, J.Joys, A.Kamyu, F.Kafka va boshqalar.

Xulosa qilib aytganimizda, adabiy yo’nalishlar adabiyot bilan bir vaqtda paydo bo’lib, u bilan hamnafas yashab kelmoqda. Ularning adabiyotimizda o’rni beqiyos. Lekin ularni biridan boshqasini yuqori yoki past deya olmaymiz. Chunki ulardan hech biri hayotdagi voqeа- hodisalarni va inson dunyosini to’laligicha aks ettira olmaydi. Adabiyot rivojlanib borgani sari, yangidan-yangi ochilmagan qirralar namoyon bo’ib boraveradi va o’sha qirralar yangi oqimlarni yuzaga keltiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati

- 1 . Hotam Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
- 2 . Aristotel “Poetika” Toshkent. G’ofur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980
- 3 . Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” Toshkent. O’qituvchi nashriyot-matbaa uyi, 2005
- 4 . Тимофив Л.И.Основы теории литературы – М. 1966
- 5 . D.Quronov “Adabiyotshunoslik lug’ati” Toshkent. Akademnashr, 2013
- 6 . Abdulla Ulug’ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” Toshkent. G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017

<sup>8</sup> Hotam Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004